



THE RESTORATION OF AMIR TEMUR'S IMAGE: IBRAHIM MUMINOV'S COURAGEOUS FEAT

Temur Muminov

Acting Associate Professor, PhD

Tashkent University of Applied Sciences

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Amir Timur, Soviet ideology, Ibrahim Muminov, historical truth, national pride, self-awareness, historical personality, scientific activity, Timur studies, ideological pressure

Received: 01.06.25

Accepted: 03.06.25

Published: 05.06.25

Abstract: This article reveals how Amir Temur's personality was portrayed during the Soviet era and the negative attitude towards him. The author analyzes the courageous actions of Ibrahim Muminov to justify the image of Sahibkiran on a scientific basis. The article exposes the policy pursued by Soviet ideology towards historical figures. Through the restoration of Amir Temur's authority, aspirations for national pride and self-awareness are highlighted. This scientific article contains important information about the struggle for the restoration of historical truth.

AMIR TEMUR SIYAMOSINING TIKLANISHI: IBROHIM MO'MINOV JASORATI

Temur Mo'minov

dotsent v.b., PhD

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Amir Temur, sovet mafkurasi, Ibrohim Mo'minov, tarixiy haqiqat, milliy g'urur, o'zlikni anglash, tarixiy shaxsiyat, ilmiy faoliyat, temurshunoslik, ideologik bosim

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur shaxsiyatining Sovet davrida qanday yoritilgani va unga nisbatan bo'lgan salbiy munosabat ochib berilgan. Muallif Ibrohim Mo'minovning Sahibqiron siyosini ilmiy asosda oqlash yo'lidagi jasoratli harakatlarini tahlil qiladi. Maqolada sovet mafkurasi tomonidan tarixiy shaxsiyatlarga nisbatan yuritilgan siyosat fosh etiladi. Amir Temurning obro'sini tiklash orqali milliy g'urur va o'zlikni anglashga bo'lgan intilishlar

yoritiladi. Ushbu ilmiy maqola tarixiy haqiqatni tiklash yo'lidagi kurashga oid muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

ВОССТАНОВЛЕНИЕ ОБРАЗА АМИРА ТЕМУРА: ПОДВИГ ИБРАГИМА МУМИНОВА

Темура Муминова

и.о. доцент, PhD

Ташкентский университет прикладных наук

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Амир Темур, советская идеология, Ибрагим Муминов, историческая правда, национальная гордость, самосознание, историческая личность, научная деятельность, темуроведение, идеологическое давление

Аннотация: В данной статье раскрывается, как освещалась личность Амира Темура в советский период и какое негативное отношение к нему сформировалось. Автор анализирует смелые действия Ибрагима Муминова по научному оправданию образа Сахибкирана. В статье разоблачается политика советской идеологии в отношении исторических личностей. Через восстановление репутации Амира Темура освещаются стремления к национальной гордости и самосознанию. Эта научная статья содержит важные сведения о борьбе за восстановление исторической правды.

Amir Temur siymosi, Sohibqiron qadriyati - millat g'ururi va sha'nini anglashda, milliy ongni yuksaltirish va o'tmish voqeligini tushunishda, yosh avlodni ona-Vatanga muhabbat va sadoqat, buyuk bobokalonlardan faxrlanish ruhida tarbiyalashda, o'zbek davlatchiligi taraqqiyoti uchun poydevor bo'lishda, o'zbek nomini jahonga tanitishda muhim omil bo'lib hisoblanadi [5. B.4.].

Biroq, buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temurning shaxsi va faoliyati mustabid sovet yillarida qora bo'yoqlarda o'rganildi, uning davlatchilik va madaniy merosini o'rganishga jiddiy to'siqlar qo'yildi. Ma'lumki, totalitar sovet davlati hukm surgan yillar davomida biz jamiyatni ikki kelishtirib bo'lmaz sinf – ezuvchilar va eziluvchilarga bo'lib qo'ydik. Davlat esa proletariat sinfining quroliga aylangan edi [1. B.8-9].

Sovet yillarida Amir Temurning haqiqiy tarixiy o'rnini tiklashga akademik Ibrohim Mo'minov va tarix fanlari doktori Asomiddin O'rinboev harakat qilgan edilar. Ammo mustamlakachilarga laganbardorlik qilib, ayrim tarixchilar bunga yo'l quymadilar va bu yovuz kuchlar 1973 yil iyun oyida Amir Temurning shaxsini rasman qoralashga muvaffaq bo'ldilar. Hattoki Amir Temur to'g'risidagi kadimgi qo'lyozma asarlarni chop etish qat'iy man etildi. Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari esa sotuvdan yig'ib olinib, yoqib yuborildi [7. B.3].

Ana shunda sharoitda Ibrohim Mo‘minovning Amir Temur saltanati tarixi, uning shaxsiy hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan asarlari g‘oyat katta ahamiyatga egadir. Mustabid tuzum qutirib, ma‘muriy buyruqbozlik, markazning yakka hokimligi avj olib, o‘zbek xalqi tarixi ochiqdan-ochiq soxtalashtirilayotgan, milliy va ma‘naviy qadriyatlar, uning buyuk siymolari tahqirlanayotgan, tarixiy haqiqatni aytish uchun intilayotganlar esa quvg‘in qilinayotgan bir sharoitda “qonxo‘r Temur”to‘g‘risida xolisona ijobiy fikr aytish chinakam ilmiy matonat va tom ma‘nodagi qahramonlik edi.

Amir Temur nomi tariximiz sahifalaridan qora bo‘yoq bilan o‘chirildi, unutishga mahkum etildi. Bunday siyosatdan ko‘zlangan asosiy maqsad xalqimizning yuragidan milliy ong, milliy g‘urur tuyg‘usini yo‘qotish, uni qaramlikka, tobelikka ko‘ndirish edi. “Ulug‘ shovinistik” g‘oyalari bilan qurollangan mustamlakachilar Amir Temurni qoralashda hech narsadan toymadi. Biroq tarixni soxtalashtirishga qarshi kurash o‘sha mudhish sovet yillaridayoq boshlangan edi[9. B.124]. Albatta, sovet yillarida yaratilgan adabiyotlarning hammasini birvarakayiga qoralash insofdan bo‘lmas. A.Yu. Yakubovskiy, A.A. Semenov, Ibrohim Mo‘minov singari olimlarning halol qo‘l, pokiza vijdon bilan bitmish tarixlari ham esdan chiqarmasligimiz kerak[2. B.354].

Akademik Ibrohim Mo‘minov Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti sifatida O‘zbekistondagi barcha ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishlarning boshida turdi va ayni vaqtda Amir Temur va temuriylar davrini ilmiy jihatdan o‘rganishda yangi bosqichni boshlab berdi. U o‘zining zohiran uzoq, ammo botinan yaqin vatandoshi, buyuk sohibqiron va davlat arbobi Amir Temurning shaxsi, uning saltanati va temuriylar davri haqida uzoq yillar ilmiy izlanishlar olib borgan, Temuriylar va ularning jahon tarixidagi o‘rni va roli to‘g‘risida salmoqli asarlar yaratgan ulkan alloma edi. Shuning uchun ham buyuk Temur haqida gap ketganda beixtiyor akademik Ibrohim Mo‘minov dahosiga murojaat qilinishi aslo bejiz emasdir.

Xususan, Ibrohim Mo‘minovning 1968 yilda rus tilida nashr etilgan “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli” nomli risolasi o‘sha vaqtdayoq, barcha o‘zbek ziyolilari va hurfikrli olimlarning hurmat va tahsiniga sazovor bo‘lgan edi. 1969 yilda mazkur asar o‘zbek tilida ham nashr etilgan edi[12. B.46].

Taniqli olim, tarix fanlari doktori Hamid Ziyoev “Ona shahrim Toshkent va hayot yo‘limdan lavhalar” nomli kitobida bu jarayonlarni quyidagicha esga oladi: “Ma‘lumki sovet davrida Amir Temurni qoralashga xech narsadan tiyilmay, soxta fikr-mulohazalar hukm surgan edi. Uning faoliyatini ijobiy baholaydigan har bir kishining taqdiri juda achinarli o‘tishi turgan gap edi. Mana shunday sharoitda taniqli olim Ibrohim Mo‘minov Sohibqironning faoliyatini o‘rganishga qo‘l o‘rib, uni “oqlash”ga harakat qildi. Qattiq nazorat va ta‘qib hukm surayotgan juda og‘ir sharoitda mustaqillik ramzi hisoblangan – Amir Temurni “oqlash” hakida oshkora ezish hazil gap

bo'lmagan. Buning uchun vatanparvar, millatparvar va jasoratli bo'lish zarur edi. Ibrohim Mo'minov huddi shunday olim sifatida o'zini ko'rsatdi"[10. B. 102].

Ibrohim Mo'minovning "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixidagi tutgan o'rni va roli" risolasi nashr etilganda nihoyatda ezilgan va xo'rlangan o'zbek xalqida g'ururlanish va faxrlanish tuyg'ulari uyg'onib, yelkasiga oftob va ko'kragiga shamol tekkandek bo'ldi. O'z-o'zini anglash va milliy his-tuyg'ular jo'sh o'ra boshladi. Bu holat kommunistik partiyaning g'azabini qo'zg'atishi turgan gap edi. Natijada xavf-xatar va mish-mish gaplar zo'rayib bordi. Markazdagilar Ibrohim Mo'minov va uning tarafdorlariga karshi kurashda odatdagidek, ayrim mo'rt kishilarni ishga solishdi, yani "sopi o'zidan chiqarildi" [9.B.124].

Shu o'rinda Amir Temurni "oqlash" va unga qarshi kurash jarayoni qanday kechganligi to'g'risida qisman to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bu birinchidan, sovet yillarida tarixni o'rganishda hukm surgan mafkuraviy qoliplar va to'siqlarni ko'rsatishga, ikkinchidan bu jarayonda Ibrohim Mo'minovning ilmiy jasoratini bor bo'yi bilan ko'rsatishga xizmat qiladi.

Akademik Ibrohim Mo'minovning bir tomondan tarixiy, boshqa tomondan ilmiy jasoratning yaqqol namunasi hisoblangan ma'ruzasidagi asosiy tezislar quyidagilar:

- Temur bobolar yurti Movoraunnahrda markazlashgan davlat tuzish yo'lida tinimsiz kurashgan va uning uddasidan chiqqan fotih, buyuk lashkarboshidir;
- Temur bir vaqtning o'zida dushmanlarga ofat, o'z amirlariga qattiqqo'l rahbar, o'z xalqiga padari buzrukvor edi;
- Temur davlatning obro'si, sharafi, manfaati sohasida g'oyat qattiqqo'l edi: u bunday paytlarda urug'larini ham ayamas edi. U davlat ishlarida g'oyat mustahkam, sobit va barqaror turardi;
- Harbiy tarix Temurni o'rta asrning eng yirik lashkarboshtlaridan hisoblaydi. Uning harbiy mahorati ikki yo'nalishda: askariy qismlarni qayta tashkil etishda va lashkarboshi – qo'mondonlikda namoyon bo'ldi;
- Temur Angliya va Fransiya qirollariga murojaat qilib, o'zaro diplomatik munosabatlar o'rnatish va savdo aloqalarini rivojlantirishga muvaffaq bo'lgan. Bu masalada Amir Temur o'zining diplomatik mahoratini namoyon etdi: u Vizantiya, Venetsiya, Genuya, Ispaniya - Kastiliya, Fransiya, Angliya bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatish va uni mustahkamlash faoliyatini amalga oshirdi. Fransiya va ingliz qirollarining maktublari bunga dalildir.
- Bizning nazarimizda, Temur birlashgan, mustaqil, iqtisod va madaniyati taraqqiy etuvchi davlat tarafdori bo'lgan ...[4. B.430-431].

Ma'ruzadan so'ng so'zga chiqqan Yahyo G'ulomov, Hamid Ziyoev, O.E. Eshonov, Sh.Z.O'razaev, Hamid Sulaymonov, B.V. Lunin. L.I. Rempel, G.A.Pugachenkova, Roziya

Muqminova, Muzaffar Hayrullaev, M.K. Nurmuhamedov, O. Chexovich va H.Sh. Inoyatov Ibrohim Mo‘minovning mazkur risolasi, undan ilgari surilgan tezislar yuzasidan ijobiy fikrlar bildirdilar va Kengash bir og‘izdan “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixidagi tutgan o‘rni va roli” risolasini chop etish to‘g‘risida qaror qabul qildi[7. B.415-416].

Mazkur jarayonlarning bevosita ishtirokchi bo‘lgan Hamid Ziyoev ma‘ruzadan keyingi voqealarni quyidagicha xotirlaydi: “Ma‘lumki, qand kasalligi tufayli Ibrohim akaning rangi hamisha o‘chganroq ko‘rinardi, lekin endi u kishining ranglari qizargan va ko‘zlaridan nur yog‘ilib turardi, kayfiyati nihoyatda baland edi. Gapning ochig‘ini aytganda, men Ibroxim akani bunday holatda birinchi ko‘rishim edi. U darhol o‘rnidan turib qo‘lini men tomon cho‘zib ko‘rishgandan keyin, katta muvaffakiyat bilan tabrikladim.

– Hamidulla, dedi Ibrohim aka, – mening nomimdan muzokaralarga chiqkanlarga yana bir bor minnatdorchilik bildiring, ayniqsa, Yaxyo G‘ulomovdan xursandligimni ayting.

– Bugungi kengash, - dedim men, – tarixga muhim vokea sifatida kiradi.

– Haqiqatan ham ulug‘ ish bo‘ldi, biroq u faqat bizgagina emas, balki kengashda qatnashgan ximiklar, matematiklar, biologlar, huquqshunoslar, sharqshunoslar va boshka soha vakillari uchun ham qutlug‘ kun bo‘ldi. Ularning kengashda qatnashib bizni tarafimizda turishi katta madad xisoblanadi. Keyinchalik Tarix institutida “Amir Temur va temuriylar davlati tarixi” bo‘limini tashkil qilib, uni chuqur va atroflicha o‘rganamiz”[9. B.127].

Yuqorida ta’kidlanganidek, 1968-1969-yillarda Ibrohim Mo‘minovning “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixidagi tutgan o‘rni va roli” nomli risolasi o‘zbek va rus tillarida chop etildi. Shuningdek, uning tashabbusi va bevosita ishtirokida “Temur tuzuklari” va Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarlari nashr qilingan edi[8. B.123].

Albatta, bu kabi ishlarning amalga oshirilishida O‘zbekistonning o‘sha vaqtdagi rahbari Sharof Rashidovning ham xizmatlari ham e’tirof etish zarur. Dissertatsiyaning avvalgi qismlarida ta’kidlanganidek, Sharof Rashidov Samarqand dorulfununida Ibrohim Mo‘minovning qo‘lida tahsil olgan, keyinchalik qo‘da-andachilik munosabatlari bilan ular o‘rtasidagi munosabat yanada mustahkamlangan edi.

Zamondoshlarning xotirlashicha, “Amir Temur haqidagi yuqorida ko‘rsatilgan ishlarning nashr etilishi butun respublika ziyoli ahlini va umuman, jamoani to‘lqinlantirib yubordi. Ko‘chada ketaётganimda duch kelgan tanish bilishlar tabriklashib, Ibrohim akadan g‘oyatda mamnun ekanliklarini izhor kilardilar. Bundan tashqari, odamlar ketma-ket telefon qilishib, Ibroxim akaga qoyil kolganliklarini bildirishar, kitobidan topib berishimni iltimos qilardilar. Tez kunda kitoblar sotilib ketdi, ammo unga talab zo‘rayib boraverdi”[10. B.417].

Ko‘p o‘tmay, bir guruh kishilar, xususan B. Ahmedov, M. Vahobov, M. Abduraimov, R. Nabiev va boshqalar Ibrohim Mo‘minovni Amir Temur shaxsini ideallashtirishla ayblab

chiqadilar. Ayniqsa, M. Vahobov partiya faollarining yig'ilishlarida va boshqa joylarda Ibroxim Mo'minovni qattiq tanqid qilaveradi. Hamid Ziyoevning xotirlashicha, o'sha paylarda uning yoki Yahyo G'ulomovning xonasida Ibrohim Mo'minovga qarshi qilinaётgan hujumni qay tarzda bartaraf qilish haqida fikr yuritilgan. Bunda O.Eshonov, M.K.Nurmuxamedov va boshqa kishilar ham qatnashardi. Shunda Hamid Ziyoev Ibrohim Mo'minovning risolasiga taqriz yozishni o'z bo'yniga olgan. Buni eshitgan Ibrohim Mo'minov:

“– Hozir Amir Temur hakidagi kitobdan faqat O'zbekistondagina emas, balki Moskva va boshqa jumhuriyatlarda qattiq norozi kishilar bor. Ayniqsa, Moskvadagi bir guruh olimlar to'polon qilishyapti. Bu ish alanga oladiganga o'xshaydi, tag'in siz jabrlanib qolmang.

– Ibrohim aka, – dedim men, – kemaga tushganning joni bir, deganlaridek, birgalikda kurashamiz. Bu gapimni Yahyo aka to'la quvvatladi. Shu bilan suhbat to'gadi. Bir haftadan keyin “Sovet O'zbekistoni” gazetasining muharriri M.Qorievga taqrizni topshirganimda, bir-ikki kundan keyin qo'ng'iroq qilishini aytdi. Qo'ng'iroq qilib, ijobiy javob oldim va bir necha kundan keyin taqriz «Ilmiy risola» nomi ostida “Sovet O'zbekistoni” gazetasining 1969 yil 4 yanvar sonida chop etildi. Bunda kitobda qo'yilgan masalalar va fikrlar to'la qo'llab-quvvatlandi. Redaksiyada maqolaning kuchli fikr-mulohazlari qisqartirilgan va silliqlantirilgan bo'lsa-da, lekin, u dushmanlarga qarshi javob tariqasida foydadan holi bo'lmadi. Ayniqsa, M.Vahobov g'azablanib va norozilik bildirib, menga telefon qildi”[9. B.128].

Ibrohim Mo'minov bashorat qilganlaridek, risolaga qarshi harakatlar avjiga minib bordi. Moskvada SSSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining direktori akademik B. G'afurov Ibrohim Mo'minovga qarshi kurashning tashabbuschisi va ilhomchisi edi. Uning so'roviga binoan Gruziya va boshqa respublikalardan norozilik xatlari olinganligi haqida xabarlar eshitildi. KPSS Markaziy Komiteti fan bo'limining tashabbusi bilan respublikalarning tarixchilarini yig'ilishi o'tkazildi. Bu yig'ilishda Tarix instituti direktori M.Oxunova xam qatnashgan edi[10. B.107]. Yig'ilishda akademik B.G'afurov, O'zbekistonda odamlarning boshidan minora yasagan zolim Amir Temur ko'klarga ko'tarilib, Vatan qahramoniga aylantirilgani, bundan o'zining qattiq noroziligini bildiradi. Zalda o'tirganlar orasida g'ala-g'ovur boshlanib, qattiq choralar ko'rish haqida luqmalar tashlana boshlaydi [9. B.129].

Tarixchi olim Haydarbek Bobobekov keyinchalik B. Axmedov, M. Abduraimov va boshqalarning Ibrohim Mo'minovni qoralash kampaniyasida ishtiroki masalasida quyidagi fikrlarni keltiradi: “... ikki guruh olimlar, birinchi guruh: Ibrohim Mo'minov, Sabohat Azimjonova, Asomiddin O'runboev, B.Mannopov va boshqalar. Bular Amir Temurni qisman oqlab chiqqan edilar. Ikkinchi guruh: B.Ahmedov, M.Abduraimov va R.Nabievlar. Bular Ibrohim Mo'minovning “Amir Temurning O'rta Osiyo tarixidagi tutgan o'rni va roli” nomli risolasiga qarshi chiqqan edilar[7. B.419]. Tarixchi olim H. Ziyoev Ibrohim Mo'minovning Amir Temur

to'g'risidagi risolasiga qarshi hujumlar va uni bartaraf qilish harakati umumlashtirganda 1969 yildan to 1974 yilgacha, ya'ni uning vafotigacha davom etganligini ta'kidlaydi[10. B. 112]. Haydarbek Bobobekovga ko'ra, ular o'rtasidagi kurash 1985 yilgacha davom etgan"[7. B. 419]. Bu mashaqqatli yillarda Ibrohim Mo'minov ustidan Markazga ko'plab imzoli va imzosiz xatlar yuborildi. Hatto, ular orasida 50 yil avvalgi Ibrohim Mo'minovni "bulg'alashga" qaratilgan tuhmat so'zlar ham mavjud edi. Natijaja Ibrohim Mo'minovning sog'ligini, ayniqsa adolatsizlik va tuhmatlar ruhida yozilgan xatlar yomonlashtira borgan[9. B.134].

M.Abduraimov bilan yaqin munosabatda bo'lgan, uning tarixga doir ilmiy asarlar, xususan Amir Temur faoliyati to'g'risida yaxshi fikrlar yozganligi, o'zaro suhbatlarda ham sohibqironning xizmatlarini tan olganligini e'tirof etgan Hamid Ziyoev uning nima uchun to'satdan "to'nini teskari kiyganligining sababi tom ma'nodagi ilmiy baxs emas, balki ko'proq ayrim kishilarning aybi bilan yuzaga kelgan shaxsiy adovatlarning mahsuli bo'lganligini, bundan tashqari, sovet tuzumi doimo "suvni loyqalatib turish"dan o'ta manfaatdor bo'lganligini ta'kidlaydi[10. B.111].

Biroq, Ibrohim Mo'minov boshiga malomat toshlari yog'dirgan A.P. Novosel'sevning "Об исторической оценке Темуря" degan maqolasi bugungacha tarixchilarimiz va ijtimoiy fanlar soha vakillari e'tiboridan chetda qolib kelmoqda. Bu buyurtma maqola Ibrohim Mo'minovning "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli" nomi bilan nashr etilgan maqolasidan so'ng ommaviy qoralash kampaniyasiga aylanadi. Va bunday "ilmiy-ma'rifiy" qatag'on siyosati har doimgidek o'zimizning qo'limiz bilan amalga oshiriladi [11. B. 260-261].

Xususan, B. Ahmedov tashabbusi bilan bir guruh tarixchilar Moskvaga KPSS Markaziy qo'mitasiga Ibrohim Mo'minov asarini tanqid qilib, Amir Temurni qoralab xat yozishgan va natijada 1972 yili Amir Temur rasman qoralandi. Oqibatda Ibrohim Mo'minovning "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixidagi tutgan o'rni va roli" kitobi qoralandi. Asomiddin O'runboev tomonidan nashrga tayyorlangan va fotofaksimile sifatida chop etilib, kitob do'konlariga sotuvga chiqqan, dunyoda o'zining to'liqligi va haqqoniy bayon etilganligi bilan mashhur bo'lgan Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari yig'ib olinib yoqib tashlandi[3. B.203-204].

O'tganlar haqida mulohaza yuritish juda mas'uliyatli va og'ir. Zero ular o'zlarining yaxshi va yomon ishlari uchun arj olib bo'lishgan. Akademik Bo'riboy Axmedov keyinchalik Amir Temur va temuriylar davri tarixini o'rganishda peshqadam bo'lib, bu uning avvalgi hatti-harakatlari uchun kafforat edi. B. Axmedov istiqloq yillarida Ibrohim Mo'minov boshlab bergan temurshunoslikning davomchisi bo'ldi. U oxiriga yetkaza olmagan ishlarni muvaffaqiyat bilan uddaladi. Millatga Amir Temur shaxsi qaytarildi.

Ibrohim Mo'minov umrining oxirigacha o'z vatani va millati ravnaqi uchun kuchini va bilimini ayamadi. U vatanparvarligi va ilm fanning chinakam Fidoyisi sifatida shuxrat kozonib. millatimizning milliy his-tuygulari va siyosiy ongining o'sishiga katta xissa qo'vashgan edi.

Shubhasiz, uning ko'rsatgan jasorati va matonati xech qachon unutilmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Boboev H. Amir Temur va temuriylar saltanati. – Toshkent: Kamalak, 1996. 8-9-betlar.
2. Fayziev T. Temuriylar shajarasi: // Ilmiy-tarixiy ommabop nashr. – Toshkent: Info Capital Group, 2020. 354-bet.
3. Haydarbek Nazirbekovich Bobobekov 80 yoshda. Yubilyar do'st va tirnoq ichidagi "do'stlar" nigohida. – Toshkent, 2021. 203-204-betlar.
4. Mo'minov I.M. Tanlangan asarlar. Uch tomlik. 1 tom. – Toshkent: Fan, 1969. 430-431-betlar.
5. Odilov A.A. Amir Temur tuzuklari – davlat boshqaruvi asosi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. 4-bet
6. Professor H. Bobobekov bilan o'tkazilgan suhbat-intervyu materiallari. Toshkent, 2022 yil 3 yanvar.
7. Temur qissasi: Amir Temur Ko'ragon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. 419-bet;
8. Temur tuzuklari (Tuzuki Temuriy). "Guliston" jurnali. 1967 yil 1-son; Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Nashrga tayyorlash, so'zboshi, izoh va ko'rsatkichlar A. O'rinboevniki. Mas'ul muharrir filologiya fanlari doktori A.K. Arends. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1972. – 1223 b.
9. Ziyoev H. Buyuk Amir Temur saltanati va uning taqdiri. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 127-bet;
10. Ziyoev H. Ona shahrim Toshkent va hayot yo'limdan lavhalar. – Toshkent: Fan, 2008. 106-bet
11. Alimardonov T. Amir Temur imperiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. 260-261-betlar.
12. Муминов И.М. Роль и места Амира Темура в истории Средней Азии. – Ташкент: Изд-во "Фан", 1968. – 46 с.; Мо'minov I.M. Amir Temurning O'rta Osiyo xalqlari tarixida tutgan o'rni va roli. – Toshkent: Fan, 1969. - 45 b.